O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UO‘K: 811.133.1:81’373.43+81’1

Kamola K. LATIFOVA,
O‘qituvchi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: E-mail: kamola-latifova@mail.ru, https://orcid.org/0009-0008-0729-3009

O‘zDJTU dotsenti, G.Raxinova taqrizi asosida

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «G‘AZAB» SEMALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillarida g‘azabni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari qiyoslanadi. Mavzuning dolzarbligi hissiyotning obrazli ifodasidagi umumiy va tilga xos belgilarni aniqlash zarurati bilan bog‘liq. Misollar ikki tilning izohli va frazeologik lug‘atlaridan tanlandi. Komponent, kontekstual va chog‘ishtirma tahlil usullari qo‘llanildi. G‘azabni bevosita bildiruvchi iboralar unga yaqin holat yoki tashqi belgini ifodalovchi birliklardan farqlandi. Tillararo muqobillik ma’no, obraz va uslubiy qo‘llanish mezonlari asosida tavsiflandi. Tahlilda qisman muqobillik va obrazli muqobili aniqlanmagan birliklar farqlandi; ularning ma’no va obrazdagi tafovutlari ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: g‘azab, frazeologik birlik, semantika, obrazli asos, lingvomadaniy xususiyat, tillararo muqobillik.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ СО ЗНАЧЕНИЕМ ГНЕВА ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье сопоставляются фразеологические единицы со значением гнева во французском и узбекском языках. Актуальность исследования связана с выявлением общих и национальных особенностей образного выражения эмоций. Отобранные из словарей примеры изучены с помощью компонентного, контекстуального, градуального и лингвокультурного анализа. Выражения, непосредственно называющие гнев, отделены от единиц, обозначающих его причины и внешние признаки. Межъязыковые соответствия описаны по значению, образу и стилистической окраске. Результаты могут быть использованы при составлении двуязычного фразеологического словаря и в преподавании языков.

Ключевые слова: гнев, фразеологическая единица, семантика, образность, лингвокультурная специфика, межъязыковое соответствие.

SEMANTIC AND CULTURAL FEATURES OF FRENCH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS OF ANGER

Annotation

This article compares phraseological expressions of anger in French and Uzbek. The study examines shared and language-specific ways of representing emotion through imagery. Examples selected from dictionaries are examined by componential, contextual, gradational, and linguocultural analysis. Expressions directly denoting anger are distinguished from those referring to its causes or outward signs. Cross-language correspondences are assessed by meaning, imagery, and stylistic register. The findings may inform bilingual phraseological dictionaries and language teaching.

Keywords: anger, phraseological expression, semantics, imagery, cultural features, cross-language correspondence.

Kirish. G‘azab inson hissiyotlaridan biri bo‘lib, uning til orqali ifodalanishi faqat holatni nomlash bilan cheklanmaydi. Frazeologik birliklarda bu hissiyot qaynash, rang o‘zgarishi yoki o‘zini boshqara olmaslik kabi obrazlar vositasida tasvirlanadi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi bunday birliklar ma’nosi jihatidan yaqin bo‘lishi mumkin, biroq ularning obrazli asosi, qo‘llanish doirasi va uslubiy bo‘yog‘i har doim ham mos kelmaydi. Shu sababli ularni bir tildagi sinonimik munosabatlar va ikki til o‘rtasidagi muqobillik nuqtayi nazaridan alohida tekshirish zarur. G‘azabning hissiy asosi umumiy bo‘lsa-da, uning lisoniy ifodasi madaniy tajriba bilan ham bog‘liq [1]. Z. Kevechesh tavsiflagan “qaynoq suyuqlik” va “olov” kabi konseptual metaforalar [2] ikki til misollaridagi o‘xshash hamda farqli obrazlarni tahlil qilishga yordam beradi [3].

Maqolaning maqsadi fransuz va o‘zbek tillarida g‘azab holatini ifodalovchi turg‘un birliklarning ma’no ko‘lami, kuchayish darajasi, uslubiy xususiyatlari va obrazli asosini chog‘ishtirishdir. Buning uchun, birinchidan, g‘azabni bevosita ifodalovchi birliklar unga yaqin holat va tashqi belgilarni bildiruvchi birliklardan ajratiladi; ikkinchidan, sinonimik yaqinlik bir til doirasida, muqobillik esa ikki til o‘rtasida tekshiriladi; uchinchidan, misollar kontekstga qarab baholanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.V.Vinogradov frazeologik birliklarning ma’no yaxlitligi va tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishga e’tibor qaratgan [4]. Sh.Balli esa turg‘un ifodalarning nutqdagi uslubiy ta’sirini tahlil qilgan [5]. Bu yondashuvlar g‘azabni bildiruvchi birliklarni faqat bitta umumiy sema bilan birlashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Masalan, jahli chiqmoq holatni bevosita nomlaydi, qovog‘idan qor yog‘moq esa ko‘proq uning tashqi belgisini tasvirlaydi. Demak, sinonimik yaqinlikni aniqlashda ma’no markazi bilan birga qo‘llanish vaziyati va uslubiy bo‘yoq ham tekshiriladi.

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev frazeologik sinonimlarni umumiy va farqlovchi ma’no belgilari asosida tavsiflagan [6]. M. Y. Vafoyeva tadqiqotida sinonimik qator va birliklarning struktur-semantik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan [7]. A. E. Mamatov esa o‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalarini maxsus o‘rgangan [16]. Uning tadqiqot yo‘nalishi bu maqolada erkin so‘z birikmalarini turg‘un iboralardan ajratish zaruratini asoslashga yordam beradi. Rahmatullayev va Vafoyeva qarashlariga tayanib, o‘zbekcha birliklar orasida hissiyotning kuchi, boshlanishi va tashqi namoyon bo‘lishi kabi farqlar ajratiladi. Biroq bir til ichidagi sinonimlik mezonini boshqa tildagi ifodalarga bevosita ko‘chirish to‘g‘ri emas: tillararo qiyosda muqobillik alohida baholanishi lozim.

Fransuz tilidagi frazeologik birliklarni tanlashda G.Gross va B.Lamiroy muhokama qilgan qotishish va ma’no yaxlitligi mezonlari ahamiyatlidir [8; 9]. Bunday mezonlar erkin so‘z birikmasini frazeologik birlikdan farqlashga yordam beradi, ammo ikki tildagi obrazlarning o‘zaro mosligini o‘zicha hal qilmaydi. Z.Kevecheshning hissiyot metaforalari haqidagi qarashlari [2] va J.Lakoff hamda M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi [14] qaynash, olov va boshqaruvni yo‘qotish kabi tasvirlarni izohlash imkonini beradi. Shunday qilib, mavjud

tadqiqotlar birlikning ma’nosi, turg‘unligi va obrazini alohida tavsiflash uchun asos yaratadi; ushbu maqolada esa tanlangan fransuzcha va o‘zbekcha misollarda shu uch jihat uslubiy qo‘llanish bilan birga qiyoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Misollar fransuz tilining frazeologik va izohli lug‘atlari hamda o‘zbek tilining izohli va frazeologik lug‘atlaridan maqsadli tanlandi [10-13]. Namuna sifatida matnda tahlil qilingan birliklargina hisobga olindi; to‘liq korpus yoki chastota tadqiqoti o‘tkazilmadi. Dastlab lug‘aviy ma’no va qo‘llanish cheklovlari tekshirildi, keyin ma’no tarkibi, hissiyot darajasi, obraz va uslubiy registr qiyoslandi. Tarjima muqobili sinonim bilan tenglashtirilmadi: bir til ichidagi sinonimik munosabat va tillararo moslik alohida baholandi.

Sinonimiya har bir tilning ichki tizimida belgilanadi; fransuz va o‘zbek frazemalari esa o‘zaro sinonimlar emas, balki tillararo lisoniy muqobillar sifatida chog‘ishtiriladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolqda “g‘azab” semantik maydonini bevosita ifodalovchi birliklar bilan unga yaqin birliklarning chegarasi aniqlanadi. Sinonimik qator yadrosiga “se mettre en colère” va “jahli chiqmoq” kabi holatni bevosita bildiruvchi birliklar kiritildi. “Être à cran (“asabi tarang bo‘lmoq”)” g‘azabga moyillikni, “qovog‘idan qor yog‘moq” esa salbiy kayfiyatning tashqi belgisini ifodalashi mumkin; ularning ma’nosi barcha kontekstlarda g‘azabga teng emas. Shuning uchun jadvaldagi kuchsiz va chegaradosh ifodalar qat’iy sinonim emas, semantik maydonning yaqin birliklari sifatida ko‘riladi.

Fransuz tilida “Prendre la mouche” odatda arzimas sababdan ranjish yoki jahl qilishni, “être à cran” asabiy taranglikni, “être soupe au lait” esa tez jahli chiqadigan odamning xususiyatini bildiradi [10; 11]. So‘nggi ikki ifoda muayyan paytdagi g‘azab holatini har doim anglatmaydi. Ularni “se mettre en colère” bilan bir xil ma’noli birlik sifatida qo‘llash uchun kontekst kerak. Mazkur farq g‘azabning boshlanishi, unga moyillik va bevosita holatni ajratishga yordam beradi.

O‘rta va kuchli ifodalar orasida “la moutarde lui monte au nez (“jahli chiqa boshlamoq”)”, “avoir le sang qui bout (“qoni qaynamoq”)”, “sortir de ses gonds (“o‘zini tuta olmay qattiq jahli chiqmoq”)” va “voir rouge (“g‘azabdan ko‘ziga hech narsa ko‘rinmaslik”)” ajratildi [10; 11]. “Monter sur ses grands chevaux” ifodasida o‘zini yuqori tutish yoki keskin munosabat ham seziladi; shu bois u har bir g‘azab kontekstiga mos kelmaydi. Bu birliklarning darajasi alohida vaziyat va lug‘aviy qaydlarga bog‘liq.

Kuchli hissiyot obrazlari rang (“voir rouge”, “être vert de rage”), qaynash (“avoir le sang qui bout”) va boshqaruvni yo‘qotish (“sortir de ses gonds”) orqali ifodalanadi. “Péter les plombs” so‘zlashuv tilida o‘zini boshqara olmay qolishni bildiradi; uning ma’nosi g‘azab bilan cheklanmaydi. Shu sababli uni faqat g‘azab aniq ifodalangan kontekstlarda qatorga kiritish mumkin. Birliklarning tarixiy kelib chiqishi haqidagi taxminlar ularning hozirgi ma’nosiga dalil sifatida olinmadi.

Tuzilishda fe’lli model (“voir rouge, sortir de ses gonds”), sifatli model (“être vert de rage”) va gapga teng birlik (“la moutarde lui monte au nez”) uchraydi. Konseptual metafora nuqtayi nazaridan “g‘azab – issiqlik” va “g‘azab – boshqaruvni yo‘qotish” kabi umumlashmalar tavsifiy talqindir [2; 14]. Ularning har bir til uchun qanchalik faolligi faqat katta hajmli korpusni tekshirish orqali aniqlanishi mumkin.

O‘zbek tilida “jahli chiqmoq va achchig‘i chiqmoq” bevosita holatni bildiradi; “g‘azabi qaynamoq, tutaqib ketmoq” va “jini qo‘zimoq” kuchliroq yoki obrazliroq ifoda bo‘lishi mumkin [12; 13]. “Zardasi qaynamoq”, “qovog‘idan qor yog‘moq” va “sabr kosasi to‘lmoq” kabi birliklar esa g‘azabga yaqin holat, tashqi belgi yoki sabrning tugashini ham anglatadi. Ularning barchasini bir xil sinonimik qator a’zosi deb hisoblash ma’no chegarasini xiralashtiradi.

“Qoni qaynamoq” iborasi fransuzcha “avoir le sang qui bout” bilan obraz jihatidan yaqin. Biroq o‘zbek tilidagi birlik kontekstlarda “jo‘shqinlik”ni ham anglatishi mumkin; muqobillikni belgilashda kontekst tekshiriladi [12; 13]. “Tepa sochi tikka bo‘lmoq” va “les cheveux se dressent sur la tête” tasvir jihatidan o‘xshash bo‘lsa ham, ikkala birlikni muqobil deb olish mumkin emas: “qo‘rquv” va “g‘azab” talqinlari lug‘at hamda kontekst asosida farqlanadi.

“Jini qo‘zimoq” tarkibidagi “jin” komponenti o‘zbek tilidagi o‘ziga xos obrazni yuzaga chiqaradi. “Sabr kosasi to‘lmoq” va “la coupe est pleine” bir-biriga yaqin “idish to‘lishi” obraziga ega, ammo birinchisi sabrning tugashini, ikkinchisi vaziyatning chidab bo‘lmas darajaga yetishini bildirishi mumkin. “Ko‘zi qonga to‘lmoq” hamda “voir rouge rang” va ko‘rish sohasiga oid bo‘lsa-da, tasvirning qurilishi farqli. Bunday juftliklarda faqat obraz o‘xshashligi yetarli mezon emas.

O‘zbek tilida “jahli chiqmoq”, “g‘azabi qaynamoq” va “jini qo‘zimoq” birikmalarida hissiyot nomiga egalik qo‘shimchasi qo‘shiladi; fransuzcha “il voit rouge”, “il sort de ses gonds” tuzilmalarida shaxs grammatik ega bo‘lib keladi. Biroq “la moutarde lui monte au nez” kabi fransuzcha misolda ham hissiyotga aloqador boshqa ega qatnashadi. Demak, bu kuzatuv tanlangan misollardagi grammatik farqni ko‘rsatadi; ikki til tafakkuri haqida umumiy qat’iy xulosa bermaydi.

Somatik komponentlarning chog‘ishtirma tavsifi jadvalda tana a’zolarini bildiruvchi komponentlar va ularga yaqin ifodalar misol tariqasida keltirilgan. Barcha misollar “g‘azabning to‘liq” sinonimi emas, chegaradosh ma’nolar alohida ko‘rsatiladi.

Quyida “G‘azab” semali frazeologik biriklardagi (misollar Rey A., Chantreau S. “Dictionnaire des expressions et locutions” va 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kabi lugatlari asosida tanlangan)

1-jadval.

“G‘azab” semali biriklardagi somatik komponentlar

Somatizm	Fransuz tilida	O‘zbek tilida	Ma’no va qo‘llanish bo‘yicha izoh
qon / sang	avoir le sang qui bout	qoni qaynamoq	Qaynash obrazi o‘xshash; kontekstda g‘azab ma’nosi tekshiriladi.
ko‘z / œil	voir rouge	ko‘zi qonga to‘lmoq	Ko‘rish va rang tasviri yaqin, grammatik qurilish farqli.

“Qon/sang” bilan tuzilgan birliklarda qaynash obrazi, “ko‘z/œil” bilan bog‘liq birliklarda esa ko‘rish va rang orqali hissiyot tasvirlanadi. Jadval lug‘atlarda qayd etilgan ma’nolar asosidagi chjg‘ishtirishni beradi.

Sinonimik qator a’zolari neytral dominantaga nisbatan uslubiy va ekspressiv jihatdan belgilanadi [5]. Ushbu tahlilda neytral, so‘zlashuv, kitobiy-badiiy va qo‘pol so‘zlashuv qatlamlari ajratildi.

2-jadval.

G‘azabni ifodalovchi va unga yaqin birliklarning ma’nosi hamda registry

Daraja	Uslubiy bo‘yoq	Fransuz tilida	O‘zbek tilida
Chegaradosh	Kontekstga bog‘liq	prendre la mouche; être à cran	qovog‘idan qor yog‘moq; achchig‘i kelmoq
O‘rta	Nisbatan neytral	se mettre en colère; se fâcher	jahli chiqmoq; achchig‘i chiqmoq
Yuqori	Obrazli, so‘zlashuv	sortir de ses gonds; voir rouge	g‘azabi qaynamoq; tutaqib ketmoq

Masalan: 1) Quand il a appris que son dossier avait disparu, il s’est mis en colère. — Hujjati yo‘qolganini bilgach, uning jahli chiqdi. Bu juftlikda ikkala ifoda ham g‘azabning bevosita yuzaga kelishini bildiradi. 2) Après trois nuits sans

sommeil, il était à cran. — U uch kechadan beri uxlamagani uchun asabi tarang edi. “Être à cran” bu gapda g‘azabning o‘zini emas, odamning jizzakilikka moyil holatini bildiradi. 3) U javob qaytarmadi, ammo qovog‘idan qor yog‘ardi. Bu yerda norozilik yuz ifodasi orqali bilinadi; aynan g‘azablanganini aytish uchun qo‘shimcha vaziyat kerak. 4) Unga qilingan adolatsizlikni eshitib, uning qoni qaynadi. Bu gapda qoni qaynamoq norozilik va g‘azabni bildiradi (Misollar muallifniki).

Jadvaldagi frazo cema darajalari lug‘aviy ma’no va uslubiy belgilar asosida ajratildi. G‘azabning kuchi va birlikning vazifasi aniq nutq vaziyatiga qarab o‘zgarishi mumkin. Tillararo muqobillik darajalari ma’no, obraz va uslubiy registr birgalikda chog‘ishtiriladi.

Mazkur jadvaldagi muqobillik darajalari lug‘aviy ma’no va obraz asosidagi talqini hisoblanadi.

3-jadval.

Fransuz va o‘zbek birliklari o‘rtasidagi muqobillik

Muqobillik darajasi	Fransuz frazemasi	O‘zbek frazemasi	Izoh
Qisman muqobillik	la coupe est pleine	sabr kosasi to‘lmoq	Sabr va chidash chegarasi ifodalanadi; aniq ma’no kontekstga bog‘liq.
Qisman muqobillik	voir rouge	ko‘zi qonga to‘lmoq	G‘azab ma’nosi yaqin, tasvirning grammatik qurilishi farqli.
Obrazli muqobil aniqlanmagan	obrazli muqobili yo‘q	jini qo‘zimoq	Jin obrazini birma-bir ko‘chirib bo‘lmaydi; izoh yoki funksional tarjima qilish kerak.

Muqobillikni ko‘rsatuvchi namunaviy kontekstlar (muallif tomonidan tuzilgan). 1) En apprenant cette injustice, il a vu rouge. – Bu adolatsizlikni eshitib, uning ko‘zi qonga to‘ldi. Ikkala gapda kuchli g‘azab ifodalangan, ammo fransuz tilida rangni ko‘rish, o‘zbek tilida ko‘zga qon to‘lishi tasvirlanadi. 2) Après cette nouvelle injustice, la coupe était pleine. – Navbatdagi adolatsizlikdan so‘ng uning sabr kosasi to‘ldi. Ikkala birlik ham chidash chegarasiga yetishni bildiradi; ular g‘azab bilan bog‘lanishi mumkin, biroq g‘azabning bevosita sinonimi emas (Misollar muallifniki).

Jadvaldagi muqobillik darajasi tanlangan misollarning semantik va obrazli xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, “sortir de ses gonds” va “tutaqib ketmoq” kuchli g‘azabni ifodalashi mumkin, ammo obrazlari boshqa.

Xulosa va takliflar. Fransuz va o‘zbek tillarida g‘azabni bevosita bildiruvchi birliklar bilan unga yaqin hissiy holat yoki tashqi belgini ifodalovchi birikmalarni farqlash zarur. Se mettre en colère va jahli chiqmoq qiyoslash uchun nisbatan neytral tayanch birliklar sifatida olindi. Boshqa birliklarning o‘zaro yaqinligi ularning mazmuni va qo‘llanish konteksti bilan belgilanadi.

Tanlangan misollarda qonning qaynashi va ko‘rishning o‘zgarishi kabi o‘xshash obrazlar mavjud. Obrazlar esa tilga xos: “sortir de ses gonds” mexanik tasvirga, “jini qo‘zimoq” mifologik komponentga tayanadi. Bu kuzatuvlar cheklangan misollar tahliliga asoslangan bo‘lib, ularning butun tildagi tarqalish darajasini belgilamaydi.

Tillararo muqobillikni aniqlashda mazmun, obraz va registr alohida tekshirilishi kerak. Frazeologik juftliklarda tasvir o‘xshash, lekin hissiyot yoki qo‘llanish vaziyati farqlanadi. Shu sababli kontekstsiz so‘zma-so‘z berilishi har doim ham to‘g‘ri ma’no bermasligi mumkin.

Ikki tilli frazeologik lug‘atda har bir birlikning ma’nosi, uslubiy belgisi va kamida bitta qo‘llanish namunasi berilishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 349 p.
2. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 223 p.
3. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140–161.
5. Bally Ch. Traité de stylistique française. Vol. I. – Heidelberg: C. Winter; Paris: Klincksieck, 1909. – 331 p.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. – 258 b.
7. Vafoyeva M.Y. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktur-semantik tahlili: filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – 24 b.
8. Gross G. Les expressions figées en français: noms composés et autres locutions. – Paris: Ophrys, 1996. – 161 p.
9. Lamiroy B. Les expressions figées: à la recherche d’une définition // Zeitschrift für Französische Sprache und Literatur. – 2008. – № 36. – P. 85–98.
10. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 1997. – 1085 p.
11. Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 2021. – 2880 p.
12. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 407 b.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
14. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
15. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
16. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари.
17. Филол. фанл. докт..... дисс. автореф.–Тошкент, 2000. – 78 б.